



DAVLAT VA HUQUQ

Mamatqulov Muhammadjon Ahmat o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6341611>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Fevral 2022

Ma'qullandi: 20 - Fevral 2022

Chop etildi: 25 - Fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Umumijtimoiy funksiya,
Maxsus-yuridik funksiya,
Huquq, Gumplovich, Ibn
Rushd, Konfutsiy, Teologiya,
Xalq, Russo, J.Lokk,
Shartnoma nazariyasi.

Shu o'rinda har doimgiday yaxshi va qiziqarli bir savol tug'ulad: Demak, birinchi davlat paydo bo'lganmi yoki huquq? Biz dastlabki kishilik jamiyatlari haqida gapirar ekanmiz, buning yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin. Aslida bu savolni bizga birinchi marotaba **Shaymardonov Botir ustoz** dars jarayonida bergan edilar. Shu paytda barcha talaba qattiq munozaraga kirishib ketgan edik. Albatta, katta yoki kichik bir davlat paydo bo'lishidan oldin odamlar urug', qarindoshlik jamoasi, qabila kabi ko'rinishga ega bo'lgan katta-kichik guruhlar bo'linib yashab kelishgan. Bu guruhlar urug'chilik jamiyatiga xos bo'lgan xususiyat edi. Bu guruhlarda qabila boshliqlari, sardorlar hamda yetakchilar mavjud bo'lishgan. Aynan, ularda katta huquqlar mavjud bo'lgan. Misol uchun, shu qabilaga yo'l boshchilik qilish, ov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamning mazmuni shundan iboratki, bunda Davlat va huquqning tarixiy kelib chiqishi, huquq haqida umumiy tushunchalar va hozirgi hayotimizda huquqning o'rni, huquqning asosiy belgilari va uning Davlat oldidagi vazifalari, o'rni haqida umumiy ma'lumot berib o'tilgan.

jarayonlarida esa dastlabki tanlov va buruqlarni berish kabilar shular jumlasidandir. Bundan ko'rinib turibdiki, oddiygina tarixga yuzlanib bu savolga javob topsak bo'lar ekan.

Huquq o'zi nima? U qanday tushuncha? Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda biz undan foydalana olamizmi? Bu uchun bizda yetarli shart-sharoitlar mavjudmi?

Oddiy tushuncha sifatida biz huquq deganda, bizda mavjud bo'lgan qanaqadir imkoniyatlarni tushunishimiz mumkin. Vaholanki, biz bunga **yuridik nuqtai nazardan** yondashsak: **Huquq** – davlat tomonidan o'rnatiladigan, o'zida tenglik, adolat, erkinlik kabi prinsiplarni namoyon etadigan, asosiy maqsadi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy



bo'lgan yurish-turish qoidalarini yig'indisini tushunishimiz kerak. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vazifasini ta'minlaydi, ya'ni huquq va ijtimoiy munosabatlar doimiy aloqada bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar turli xil bo'lganligi sababli o'ziga xos guruhlariga bo'linadi. Aynan ushbu obyektiv jarayonni huquq ham o'zida aks ettiradi, ya'ni turli guruhlariga bo'linadi. Huquqning ma'lum turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi mazkur ishning kimning manfaatlariga xizmat qilishi bu-huquqning mohiyati deb ataladi.

Huquqning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. **Huquqning irodaviy harakterga egaligi.** Bunda jamiyatning davlat irodasi aks etadi. Ya'ni davlat biror bir qonun chiqarsa, bunda xalqning irodasidan kelib chiqadi.
2. **Huquqning normativligi.** Huquqning muayyan normalarda, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, ularning javobgarlik limitlarini belgilab beruvchi yurish-turish qoidalarida o'z ifodasini topadi.
3. **Huquq va davlatning o'zaro bog'liqligi.** Bu ikki asosga ko'ra bajariladi; 1. davlat ma'lum sohaga yo'naltirilgan normative hujjat chiqaradi, ma'qullaydi, o'zgartiradi yoki bekor qiladi. Huquq normalarining bajarilishi davlat tomonidan amalga oshiriladi. 2. O'z navbatida esa davlatning jamiyat hayotining turli yo'nalishlaridagi faoliyati huquq tomonidan chegaralanib, tartibga solinadi.
4. **Huquqning umummajburiyligi.** Huquq normalari barcha huquq sub'yektiga qaratilgan bo'ladi va ushbu normalar ular tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

5. **Huquqning rasmiy hamda shakliy aniqlikka egaligi.** Davlat tomonidan o'rnatiladigan rasmiy yuridik hujjatlar shaklida amalga oshiriladi (normativ-huquqiy hujjatlar, normativ shartnomalar kabi).

6. **Huquqning tizimliliigi.** Mazkur xususiyat huquqning o'zaro mutanosib va birgalikdagi noramalar tizimi ekanligini anglatadi.

Huquqlarimizni amalga oshirishning kafolati sifatida bosh o'rinda biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini bilishimiz zarur. Konstitutsiyaning 2-bo'limi butunligicha "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanishi ham bejizga emas. Bu bo'lim 5-11-boblarni hamda 18-52-moddalarni o'z ichiga qamrab olgan. Bundan ko'ritib turibdiki mamlakatimiz qonunchilik sohasidagi bosh qomusimizning o'zidayoq shaxsning huquqlari, erkinliklari va ularning kafolatlariga naqadar keng imkoniyatlar yaratib berilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, mamlakatimizda 1997-yil – Inson manfaatlarini yili, **2007-yil – Ijtimoiy himoya yili, 2017-yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili, 2022 yil - "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"** deb nomlanishining o'ziyoq Inson qadri va uning erkiga bo'lgan e'tibordan dalolatdir.

Huquq jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta'sir qilishning asosiy yo'nalishiga ko'ra o'z funksiyasini ya'ni vazifa, faoliyatini amalga oshiradi. Bunda huquq ikkita asosiy funksiyani bajaradi:

1. maxsus yuridik,

2. umumijtimoiy funktsiya.

Maxsus-yuridik funktsiya 2 ta guruhga bo'linadi:



1. Tartibga soluvchi funksiyani o'zi ham
2 ta guruhga bo'linadi. Birinchisi **regulyativ**(tartibga soluvchi) **funksiya**-jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos keladigan ijtimoiy munosabatlar amalda bo'lishi ta'munlanadiv rivojlantiriladi. Bu ham ikkita asosda amalga oshiriladi: **1. Statik tartibga solish** va **2. Dinamik tartibga solish**.

2. Qo'riqlovchi funksiya-umumjamiyatga molik iqtisodiy, siyosiy, milliy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni, ularning daxlsizligini muhofaza qilish hamda mazkur jamiyatga begona bo'lgan munosabatlarni siqib chiqarishni maqsad qilib olgan huquqning ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq huquqiy ta'sir yo'nalishidir.

Umumijtimoiy funksiya-jamiyat hayotining turli xil yo'nalishlarida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir o'tkazadi.

Davlat o'zi qanday tushuncha? Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi nazariyal qaysilar?

Davlat tushunchasiga 3 xil usulda(yondashuvda) ta'rif beramiz:

Yuridik ma'noda davlat-muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi siyosiy tashkilot.

Sinfy ma'noda davlat-iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo'lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilot.

Umumijtimoiy ma'noda davlat-muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot.

Aynan, davlat bo'lishi uchun uning quyidagi kabi o'ziga xos bo'lgan asosiy belgilari mavjud bo'lishi zarur:

1. Aholining hududiy asosga ko'ra birlashganligi: bunda yuridik fanda muayyan davlatning suvereniteti tadbqiq etiladigan doira(**yurisdiksiya**) nazarda tutiladi.

2. Maxsus boshqaruv va majburlov apparatining mavjudligi: maxsus tarzda tashkil etilgan ushbu davlat mexanizmining samarali faoliyat yuritishi uchun alohida kishilar guruhi, davlat xizmatchilari bo'lishini taqozo etadi. Bu esa jamiyat ustidan boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Faqatgina davlat qonun chiqaruvchi, sud, ijro etuvchi, prokuratura, qurolli kuchlar va ichki ishlar organlariga ega bo'la oladigan siyosiy tashkilot hisoblanadi, jamiyatdagi boshqa tashkilotlardan farqli ravishda.

3. Huquq tizimining mavjudligi: huquqsiz davlat mavjud bo'la olmaydi, huquq davlat hokimiyatin yuridik jihatdan rasmiylashtiradi hamda shu bilan ularni **legitim** ya'ni qonuniyligini ta'minlab qo'yadi.

4. Soliq tizimining mavjudligi: faqat davlatgina aholidan rasmiy tartibda soliq yig'ish huquqiga ega. Soliqlardan tashqari davlat foydasiga boshqa yig'im va davlat bojlari ham undirib boriladi. Ularning yordamida davlat faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan moddiy-moliyaviy baza shakllantiriladi.

5. Suverenitetga egaligi: bu davlatning eng muhim belgisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlat hokimiyatining **atributi**(xususiyati) sifatida suverenitet uning ustuvorligi, mustaqilligidan iboratdir.



Har bir davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining bosh yo'nalishi mavjud bo'ladi va bu **davlat funksiyasi** deb nomlanadi. Davlat funksiyasi faoliyat doirasiga ko'ra 2 ta guruhga bo'linadi:

1. Ichki funksiya
2. Tashqi funksiya

Ichki funksiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. iqtisodiy funksiya
2. ijtimoiy funksiya
3. siyosiy funksiya
4. xuquqiy tartibotni ta'minlash funksiyasi
5. tinchlik va totuvlikni ta'minlash funksiyasi
6. ekologik funksiya kabi guruhlanadi.

Tashqi funksiyalarga esa quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi
2. mudofaa funksiyasi

Davlat funksiyasi **amal qilish davomiyligi** asosi bo'yicha :

1. doimiy
2. vaqtinchalik(muvaqqat)guruhlarga bo'lib o'rganiladi.

Davlat funksiyalari **ijtimoiy ahamiyatiga** ko'ra:

1. asosiy
2. asosiy bo'lmagan guruhga bo'lib o'rganiladi.

Avstriyalik davlatshunos **L. Gumplovichning ta'biricha**, "basharti davlat tushunchasi, ko'pincha siyosiy tendensiyalarni ifodalash, siyosiy dasturlarni tasvirlash va siyosiy maqsadga erishish uchun bayroq sifatida xizmat qilgan bo'lsa, davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi tarixiy masalada ham xuddi shunday buzilishlarga yo'l qo'yilgan. Ko'p

hollarda **«oliy g'oya»lar** yo'lida u buzilgan tarzda talqin etilgan. Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi sof masala muayyan g'oya ustida qurildi, ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib izohlandi, boshqacha aytganda, muayyan amaliy va axloqiy motivlardan kelib chiqib tushuntirildi. Ularning talqinicha, axloq va inson qadr-qimmatini saqlab turish uchun davlatning haqiqiy, tabiiy kelib chiqishini yashirish, buning o'rniga ko'pchilikka ma'qul bo'lgan biron-bir ochiq-oshkora va gumanitar ta'limotni taqdim etish joiz". Endi esa aynan shu kabi nazariyalarga to'xtalib o'tamiz.

Diniy (teologik) nazariya. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi ushbu nazariyaning asoschilaridan biri o'rta asr xolastikasining yirik namoyondasi **Foma Akvinskiy** edi. Keyinchalik bu neotomistik nazariyani **J. Mariten, F. Lebyuff, D. Eyve, Kost-Floreva** boshqalar davom ettirdilar. Sharq mutafakkirlaridan **Al-Mavardi** (X-XI asrlar), **Ibn Rushd** (1126-1198), **Ibn Xaldun** (1332-1406) va boshqalar ham teologik nazariya tarafdorlari bo'lganlar. **Teologiya** – Xudo haqidagi ta'limotdir. Bu ta'limotga ko'ra barcha narsaning, shuningdek davlat va huquqning ibtidosi xudo demakdir. Nazariyachilar davlat va huquq xudoning amru-irodasi bilan paydo bo'lgan, ularning yaratilishini insonlarning ruhiyatiga **«taqdiri azal»**ning o'zi jo etgan deb da'vo qiladilar. Bu bilan davlat va huquq muqaddaslashtiriladi. Davlat va huquqning ilohiylashtirilishi hamda daxlsizlashtirilishi hamda ekspluatatorlarning, shu jumladan, burjuazianing manfaatlariga mos tushadi. Davlat hokimiyati hamisha mavjud bo'lgan va hamisha mavjud bo'ladi, uning irodasiga so'zsiz itoat etish, lozim deb targ'ib qilinadi.



Patriarxal nazariya. Bu nazariya qadimgi Sharqda ham, Yevropada ham o'z targ'ibotchilari va asoschilariga ega edi. Xitoyda – **Konfutsiy** (er.av. VI–V asrlar), Qadimgi Yunonistonda – **Aflotun, Arastu** (er.av. 384–322-y.y.) va boshqalar. Aflotun «**Davlat**» nomli asarida davlat oiladan o'sib chiqqanini asoslashga urinadi. **Arastuning ta'kidlashicha**, “davlat hokimiyati – ibtidoiy oiladagi ota hukmronligining davomi. Oilalar sonining o'sib borishi natijasida davlat tuzilmasi paydo bo'ladi ijtimoiy mavjudod bo'lgan odamlar birlashishga intilib, patriarxal oilani tashkil etadi”, deydi. Demak, davlat hamda huquq oila hukmdori – otaning irodasi namoyishidir. O'rta asrlarda Angliyada absolyutizm mustahkamlanishini yoqlab chiqqan **R. Filmer** o'zining «**Patriarxiya, yoki qirollarning tabiiy hukmdorlik huquqini himoyalash**» (1642-y.) nomli asarida patriarxal nazariyaga tayanib, dastlab Xudo insoniyat naslining otasi va uning hukmdori – Odam Atoga qirollik hokimiyatini hadya qilganligini isbotlashga harakat qiladi. Patriarxal nazariyani ko'pchilik tanqid qiladi. Jumladan, **J. Lokk** shunday deb yozgan edi: “bu ta'limot matnlarida ilmiy yondashuv o'rniga «bolalarga cho'pchak»ni uchratamiz. Mazkur ta'limot davlatdek murakkab hodisani g'ayriilmiy biologiyalashtirib, «hikoyalar to'plami»ga aylanib qolgandek tuyuladi”.

Shartnoma nazariyasi. Davlatning shartnomali kelib chiqishi nazariyasining namoyandalari Gugo Grotsiy va Spinoza (Gollandiya), Lokk va Gobbs (Angliya), Jan Jak Russo (Fransiya), Radishchev (Rossiya) bo'lgan. Bu nazariya XVII – XVIII asrlarda paydo bo'ldi va keng tarqaldi. Shartnoma kishilar irodasining ifodasi sifatida qabul

qilinardi. Bu narsa burjua mafkurasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. «**Shartnoma nazariyasi**»ga muvofiq, davlat hokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganligining ifodasidir. Bu nazariya bir jihatdan progressiv edi, u davlat va huquq kelib chiqishini ilohiy zamindan yulib oldi. Davlatga kishilik jamiyatining mahsuli sifatida qaradi. Ba'zi nazariyotchilarining fikricha, insonlar o'zlarining tabiiy huquqlarini cheklab, bir qismini davlat hokimiyatiga beradilar, shunga ko'ra davlat jamiyat nomidan xususiy mulkni va o'z fuqarolarini himoya qilishga majbur bo'lar emish. J. Russo o'zining «**Ijtimoiy shartnoma**» deb atalgan kitobida aytishicha, “shartnomali davlat qonuniy hokimiyat asosida vujudga keladi va xususiy shaxslargagina taalluqli bo'lmasdan, balki butun xalqqa taalluqlidir”. “Xalq, – deydi Russo, – agar hokimlar shartnomani buzsa, ularni ag'darib tashlashi mumkin. **Zo'ravonlik (bosqinchilik) nazariyasi.** Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi bu nazariyaning namoyandalari K. Kautskiy, L. Gumplovich, E. Dyuring va boshqalardir. Bu nazariyaning asosiy g'oyasi shunday: davlat va huquq va sinflar bir qabilaning ikkinchi qabila tomonidan urushib, zo'rlik ishlatib, bosib olishi natijasida vujudga keladi. Davlat mag'lub bo'lgan qabilani bostirish, majburlash apparatidir. Kuchsizlarni kuchlilarning bosib olishi va bo'ysundirishi tabiat qonuni emish. Bu nazariya keng tarqatilishining sababi, u davlat abadiy bor, davlatni kuchlilar boshqaradi, degan g'oyani kishilar ongiga singdirishga urinishdir. Shuningdek, bu nazariya mustamlakachilik siyosatini oqlash uchun ham qo'l keladi. **Tabiiy huquq nazariyasi.** Uning asosiy g'oyasi – inson tabiati abadiy, o'zgarmas va tarixdan



tashqari turadi, deyishdan iborat. Tabiiy huquq nazariyasi tarafdorlari D. Lokk, T. Gobbs, G. Grotsiy, B. Spinoza va boshqalardir. Tabiiy huquq nazariyasi individni ikki toifaga ajratadi: **inson va fuqaro**. Shunga muvofiq inson huquqlari va grajdanin huquqlari deb tabiiy huquqni va pozitiv huquqni farqlaydi. Bunday qilish huquqiy dualizm pozitsiyasida turish demakdir.

Organik nazariya. Mazkur ta'limotning asoschilari – ingliz sotsiologi G. Spenser, shveysariyalik huquqshunos I. Blyunchli, fransiyalik jamiyatshunos M. Forms va boshqalar. Bu ta'limot tarafdorlari biologik organizm bilan ijtimoiy (jamiyat) organizmni bir-biriga o'xshatishadi. Shu jumladan, davlatni tirik organizm deb qaraydilar. Ular jamiyat va davlatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga biologik hayot qonuniyatlarini joriy qilishga intiladilar. Davlat insonlarning birlashuvi asosida hosil bo'ladigan organism, hukumat davlatning miyasi funksiyasini bajaradi va butun organizmni boshqaradi. **Gerbert Spenserning fikricha**, "davlat odamlarning paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, u organizm sifatida odamlardan tashkil topadi va davlat ham biologik organizmga o'xshash o'sadi, rivojlanadi, kengayadi, ixtisoslashadi va vaqti kelib o'ladi. Davlat hokimiyati insoniy maqsadlarga erishishning vositasidir¹. Organik hayot bilan ijtimoiy hayot o'rtasida o'xshashliklar bo'lsa-da, bu ta'limot ilmiylikka da'vo qila olmaydi". Jamiyat, davlat va huquqni

o'rganishda biologik qonuniyatlarni ham inobatga olish lozim, lekin ularni mutlaqlashtirish to'g'ri emas.

Tarixiy – materialistik nazariya. Ushbu ta'limotning dastlabki asoschilari L. Morgan, K. Marks, F. Engels va boshqalar. Davlat ibtidoiy jamiyatning tabiiy rivojlanishi, evolyutsiyasi oqibatida kelib chiqishini asoslashga intilish mavjud. Darhaqiqat, davlatchilikning dastlabki kurtaklari, hokimiyatning siyoslashuvi asoslari, avvalo, ibtidoiy tuzum qa'rida, uning obyektiv rivojlanishi sharoitida paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatning iqtisodiy o'sishi nafaqat davlat paydo bo'lishining moddiy asosini, balki uning sotsial asoslarini ham ta'minladi. Davlat shunday hukmronlikning vositasi sifatida paydo bo'ladi. Davlatning shu tarzda paydo bo'lganligiga tarixda isbotlovchi dalillar bor.

Shunday qilib, olimlarning fikrlari, asarlari hamda bir necha 10 yillab izlanishlarining mahsuli bo'lgan o'ziga xos nazariyalari asnosida biz davlat va huquq haqida, uning funksiyalari, vujudga kelish asoslari hamda ular haqidagi nazariyalar to'g'risida birmuncha ma'lumotlarga ega bo'ldik. Aynan, davlatning shakllanishida huquqning o'rni juda katta agarda huquq bo'lmaganida davlatning boshqaruv sohasi ham bu qadar kuchli tizimlashtirilgan tartibga ega bo'lmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odil.Qoriyev. Davlat va huquq nazariyasini. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2018
2. Xamidova M., Muxiddinova F. O'zbekiston davlati va xuquqi tarixi. 2011.